O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA’LIM VA ILM-FAN VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI



“O‘ZBEK TILINING GLOBAL MAQOMI VA NUFUZINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI”

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI







2026-yil
16-oktabr

TILAK VA TABRIK NUTQIY AKTLARIDA KOMMUNIKATIV TAKTIKANING TANLANISH XUSUSIYATLARI

CHARACTERISTICS OF COMMUNICATIVE TACTIC SELECTION IN SPEECH ACTS OF WISHING AND CONGRATULATING

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2026.10.16/ENBJ6189

Muratova Nafisa Baxtiyarovna
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti
https://orcid.org/0009-0007-7358-2952
oneidnafisa@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada tilak va tabrik nutqiy aktlarining pragmatik xususiyatlari hamda ularda kommunikativ taktikaning tanlanish omillari tahlil qilinadi. Tilak va tabrik nutqiy aktlari adresantning adresatga nisbatan ijobiy munosabatini ifodalovchi, ijtimoiy-kommunikativ aloqalarni mustahkamlovchi nutqiy birliklar sifatida o‘rganiladi. Shu bilan birga, kommunikativ taktikaning tanlanishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy, psixologik, vaziyatga oid va lingvistik omillar aniqlanadi. Tilak va tabrik nutqiy aktlarida kommunikativ taktikaning kommunikativ strategiya bilan bog‘liqligi tahlil qilinadi. Shuningdek, rasmiy va norasmiy kommunikativ vaziyatlarda qo‘llanadigan tilak va tabriklarning o‘ziga xos jihatlari, bevosita va bilvosita ifoda shakllari hamda ularning kommunikativ-pragmatik funksiyalari o‘rganiladi.*

Kalit so‘zlar: *nutqiy muloqot shaklllari, nutqiy akt, tilak, tabrik, kommunikativ taktika, kommunikativ strategiya, pragmatika, adresant, adresat, nutq vaziyati, diskurs, lingvistik omillar.*

Annotation. *This article analyzes the pragmatic characteristics of speech acts involving well-wishes and congratulations, as well as the factors influencing the choice of communicative tactics within them. Speech acts of well-wishing and congratulating are examined as linguistic units that express the addresser's positive attitude toward the addressee and strengthen socio-communicative ties. Additionally, the social, psychological, situational, and linguistic factors affecting the selection of communicative tactics are identified. The relationship between communicative tactics and communicative strategies in these speech acts is analyzed. Furthermore, the article explores the specific features of well-wishes*

and congratulations used in formal and informal communicative contexts, their direct and indirect forms of expression, and their communicative-pragmatic functions.

Keywords: *forms of verbal communication, speech act, wish, congratulation, communicative tactic, communicative strategy, pragmatics, addresser, addressee, speech situation, discourse, linguistic factors.*

Zamonaviy tilshunoslikda til birliklarining faqat nominativ va kommunikativ imkoniyatlarini emas, balki ularning muayyan nutq vaziyatida qanday maqsad bilan qo‘llanishini o‘rganishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu jihatdan pragmalingvistika, nutqiy aktlar nazariyasi va kommunikativ strategiya hamda taktika masalalari tilning insonlararo munosabatlarni shakllantirishdagi imkoniyatlarini aniqlashda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Kundalik va maishiy muloqotda tilak hamda tabrik nutqiy aktlari alohida o‘rin egallab mazkur nutqiy birliklar orqali adresant adresatga nisbatan hurmat, samimiylik, xayrixohlik va ijobiy munosabatini namoyon etadi. Ayniqsa, o‘zbek nutqiy madaniyatida to‘y, tug‘ilgan kun, yubiley, bayram, lavozimga tayinlanish, ilmiy yoki kasbiy yutuq kabi ijtimoiy ahamiyatga ega voqealar munosabati bilan tilak va tabrik bildirish kommunikativ odatning muhim tarkibiy qismidir. Mazkur aktlar tashqi jihatdan bir-biriga yaqin bo‘lsa-da, ularning kommunikativ maqsadi va pragmatik mazmuniga ko‘ra farqlanadi. Adresatning kelajakdagi holati, faoliyati yoki hayotiga doir ezgu istakni asosan tilak ifodalasa, muayyan voqea yoki erishilgan natijani e’tirof etish, adresatning quvonchiga sheriklik qilish va ijobiy baho bildirishga yo‘naltirish tabrik aktining vazifasi hisoblanadi.

Nutqiy akt nazariyasiga ko‘ra, inson nutqi faqat axborot almashish vositasi emas, balki muayyan harakatni amalga oshirish vositasi hamdir. Shu nuqtayi nazardan tilak va tabrik ham kommunikativ vaziyatda muayyan ijtimoiy-pragmatik harakatni yuzaga chiqaradi. Pragmatik maqsad va mazmunning eksplitsit, ya’ni ochiq ifoda etilishida diqqat axborot almashinuvidan ushbu axborotni uzatish maqsadiga ko‘chadi va kommunikatsiya maqsadi uzatilayotgan axborotning predmetiga aylanadi. Nutqiy harakat maqsadining ochiq bayoni turli ko‘rinishdagi lisoniy birliklar vositasida bajariladi va bulardan eng asosiysi pragmatikada performativ formula (qolip) atamasini olgan. [Сафаров,2008] Demak, tilak nutqiy aktining asosiy kommunikativ maqsadi adresatga nisbatan ijobiy kelajak modeli yoki ezgu istakni ifodalashdir. Masalan: “Sizlarga mustahkam sog‘liq, oilaviy farovonlik, ilmiy-pedagogik faoliyatingizda muvaffaqiyatlar va shogirdlaringiz yutuqlaridan faxrlanib yashash baxtini

tilaymiz” Keltirilgan nutqiy birlikda adresant adresatga bir necha ijobiy holatlarni istashini bildiradi. Bu o‘rinda tilakning mazmuni bilan bir qatorda adresantning adresatga nisbatan ijobiy munosabati ham aks etadi. Tabrik nutqiy aktida esa muayyan voqea uchun munosabat bildirish, uni ijobiy baholash va adresatning quvonchiga sheriklik qilish ustuvorlik qiladi: “Sizni qo‘lga kiritgan yutuqlaringiz bilan chin qalbimdan muborakbod etaman.!” Mazkur misolda “muborakbod etaman” performativ birlik sifatida nutqiy harakatning mohiyatini bevosita ifodalaydi. “Qo‘lga kiritgan yutuqlaringiz” birikmasi adresatning faoliyatiga ijobiy baho beradi. “Chin qalbimdan” komponenti esa nutqning emotsional-ekspressiv xususiyatini kuchaytiradi.

Adresantning adresatga tabrik va tilak yo‘llashida kommunikativ strategiya va taktikaning o‘rni muhim hisoblanadi. Hayotiy qonun-qoidalarni bilish va unga amal qilish natijasida kommunikativ strategiya mahoratiga ega bo‘lish mumki. So‘zlivchi nutqiga xos bir ifoda aktida turlicha mazmundagi kommunikativ niyatning ifodalanishi kommunikativ taktika tushunchasini namoyon etadi. Ma’lum kommunikativ maqsadga erishish uchun tanlanadigan umumiy yo‘nalish kommunikativ strategiya bo‘lsa, ushbu strategiyani amalga oshirishga xizmat qiluvchi konkret nutqiy usul va vositalar majmuini tashkil etadi omil kommunikativ taktika sanaladi. Demak, tilak va tabrik nutqiy aktlarida asosiy strategik maqsad ijobiy kommunikativ muhit yaratish, adresatga nisbatan xayrixoh munosabat bildirish va ijtimoiy aloqalarni mustahkamlashdan iborat. Ushbu strategik maqsad turli kommunikativ taktikalar orqali amalga oshiriladi. Tilak nutqiy aktlarida quyidagi asosiy kommunikativ taktikalarni ajratish mumkin: ezgu istak bildirish taktikasi; ijobiy baholash taktikasi; qo‘llab-quvvatlash taktikasi; ruhiy yaqinlikni ifodalash taktikasi; kelajakdagi muvaffaqiyatni prognoz qilish taktikasi; hurmat va ehtiromni namoyon qilish taktikasi. Masalan, “Kelgusidagi ishlaringizda yanada katta muvaffaqiyatlar tilayman” ifodasida ezgu istak bilan birga adresatning kelajakdagi faoliyatini ijobiy baholash va qo‘llab-quvvatlash taktikasi mavjud. Tabrik nutqiy aktlarida esa quyidagi taktikalar faol kuzatiladi: tabriklash taktikasi; muvaffaqiyatni e’tirof etish taktikasi; ijobiy baholash taktikasi; quvonchga sheriklik qilish taktikasi; samimiylikni kuchaytirish taktikasi; kelgusidagi yutuqlarga undash taktikasi.

Demak, bitta nutqiy akt tarkibida bir nechta kommunikativ taktikaning birgalikda qo‘llanishi mumkin. Natijada tilak va tabriklarning pragmatik jihatdan ko‘p qatlamli ekanligini ko‘rsatadi. Kommunikativ taktikaning tanlanishiga ta’sir etuvchi omillar ham mavjud bo‘lib, tilak va tabrik nutqiy aktlarida kommunikativ

taktikaning tanlanishi tasodifiy xarakterga ega emas. U, avvalo, kommunikativ vaziyatning o‘ziga xosligi bilan belgilanadi. Uni quyidagi omillrda ko‘rishimiz mumkin:

-Adresant va adresat o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatda:

Kommunikantlarning ijtimoiy maqomi, yoshi, kasbiy mavqeyi va o‘zaro munosabat darajasi nutq shaklining tanlanishiga bevosita ta’sir qiladi. Masalan, yuqori ijtimoiy mavqega ega shaxsga murojaat qilishda: “Sizni ushbu qutlug‘ sana bilan samimiy muborakbod etaman. Sizga mustahkam sog‘lik, oilaviy farovonlik va mas’uliyatli faoliyatingizda ulkan muvaffaqiyatlar tilayman.” kabi rasmiy va hurmatga asoslangan taktika qo‘llanadi. Yaqin do‘st yoki tengdoshga murojaatda esa:“Bayraming bilan! Har doim kulib yur, barcha orzularing erish!” kabi norasmiy, samimiy va emotsional taktika ustunlik qiladi.

-Nutq vaziyatining rasmiy yoki norasmiyligida:

rasmiy vaziyatda standart kommunikativ formulalar, hurmat ifodalovchi birliklar va ijtimoiy maqomni hisobga oluvchi vositalar ko‘proq qo‘llanadi. Norasmiy vaziyatda esa individual, emotsional va obrazli ifodalar faolroq namoyon bo‘ladi. Demak, bir xil kommunikativ maqsad turli vaziyatlarda turlicha taktik vositalar orqali amalga oshirilishi mumkin.

-Tabrik yoki tilak sababining xususiyatida:

Kommunikativ taktika tanloviga tabrik yoki tilakning yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan voqea ham ta’sir qiladi. Tug‘ilgan kun munosabati bilan bildirilgan tilaklarda sog‘lik, baxt, uzoq umr kabi konseptlar yetakchilik qilsa, nikoh munosabati bilan bildirilgan tilaklarda oilaviy baxt, totuvlik va farovonlik mazmuni ustun bo‘ladi. Kasbiy yoki ilmiy muvaffaqiyat munosabati bilan bildirilgan tabriklarda esa yutuqni e’tirof etish, mehnatni baholash va kelgusidagi muvaffaqiyatlarni tilash taktikasi faol qo‘llanadi.

- Emotsional-ekspressivlik darajasida:

Tilak va tabriklarning kommunikativ samaradorligida emotsional-ekspressiv vositalarning o‘rni katta. Chin qalbimdan, samimiy, ezgu, qutlug‘, ulkan, beqiyos kabi birliklar nutqning emotsional ta’sirchanligini oshiradi. Masalan: “Sizni ushbu unutilmas kun bilan chin qalbimdan muborakbod etaman!” jumlasida “chin qalbimdan” birikmasi samimiylik taktikasini kuchaytirib, adresantning ijobiy munosabatini ekspressiv tarzda ifodalashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tilak va tabrik nutqiy aktlari o‘zbek kommunikativ makonida shaxslararo munosabatlarni tartibga soluvchi, ijobiy emotsional muhit yaratishga xizmat qiluvchi muhim pragmatik birliklardan

biridir. Ularning kommunikativ samaradorligi nafaqat mazmun, balki tanlangan kommunikativ strategiya va taktikalarning nutq vaziyatiga muvofiqligi bilan ham belgilanadi. Yuqoridagi tahlil natijasida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

-Mazkur nutqiy aktlarining umumiy kommunikativ maqsadi adresatga nisbatan ijobiy munosabatni ifodalash va ijtimoiy aloqalarni mustahkamlashdan iborat.

-Tilak nutqiy aktida ezgu istak bildirish, qo‘llab-quvvatlash va kelajakdagi ijobiy holatni prognoz qilish taktikasi ustuvor bo‘lsa, tabrik nutqiy aktida voqeani e’tirof etish, ijobiy baholash va quvonchga sheriklik qilish taktikasi yetakchilik qiladi.

-Kommunikativ taktikaning tanlanishida adresant va adresatning ijtimoiy maqomi, yosh xususiyati, o‘zaro munosabat darajasi, nutq vaziyatining rasmiy yoki norasmiyligi hamda kommunikativ hodisaning xarakteri muhim omil hisoblanadi.

-Tilak va tabrik nutqiy aktlarida bir vaqtning o‘zida bir necha kommunikativ taktika qo‘llanishi mumkin. Shu sababli ular murakkab pragmatik tuzilishga ega nutqiy birliklar sifatida namoyon bo‘ladi.

-O‘zbek tilidagi tilak va tabriklar milliy-madaniy qadriyatlarni aks ettirishi bilan ham ahamiyatlidir. Ularda sog‘lik, baxt, farovonlik, oilaviy totuvlik, uzoq umr va muvaffaqiyat kabi milliy kommunikativ qadriyatlar mujassamlashadi.

Demak, tilak va tabrik nutqiy aktlarida kommunikativ taktikaning tanlanishi kommunikativ maqsad + nutq vaziyati + kommunikantlarning ijtimoiy munosabati + milliy-madaniy omillarning o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga kelishini aniqladik. Qayd etilgan birliklarni pragmalingvistik nuqtayi nazardan tadqiq etish o‘zbek nutqiy madaniyatining o‘ziga xos xususiyatlarini yanada chuqurroq ochib berishga asos bo‘ladi.

ADABIYOTLAR

1. Сафаров Ш. *Прагмалингвистика*. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2008.

2.Маҳмудов Н. *Ўзбек тилида сўзловчининг нутқ маданияти*. – Тошкент: Ўзбекистон, 1984.

3.Муҳаммад Ҳакимов . Ўзбек прагмалингвистика асослари, Тошкент: Академнашр 2013

4. Umurzakova Markhabo, Language identity and the role of the social factor in its formation , foreign languages in Uzbekistan (journalfledu.com): vol.53 no. 6.2023)

5. Umurzakova M. Muallif lisoniy shaxsining voqelanishida paranteza va parsellyatsiyaning o‘rni xususida.

https://adabiyotxazinasi.com/index.php/inno/article/view/1210

6. Umurzakova M. Sociopragmatic Features of The Realisation of Linguistic Personality in The Literary Text. Volime:07 Issue:02/ April 2026 ISSN:2660-6828

https://cajlpc.casjournal.org/index.php/CAJLPC/article/view/1529

7.Umurzoqova M. Muallif lisoniy shaxsining voqelanishida sintaktik birliklarning o‘rni. (2026). science time journal, 4(4/1), 353-356. https://uzresearchers.com/index.php/stj/article/view/5725

8. Umurzoqova M. (2022) Badiiy matnda lisoniy shaxsni belgilashning gender omili. Vol. 4 No. 4 (2022): Uzbekistan: Language and Culture

9. Muratova N. B. *Verbal assotsiatsiya va ekspressiv (tilak va tabrik) nutqiy aktlar* / Monografiya. — Toshkent: Grant Kondor Print**,** 2024**. —** 120 b.

MUNDARIJA

KIRISH SO‘ZI		
Sirojiddinov Sh.S.	O‘zbek tilining xalqaro nufuzini oshirish zarurati	**6**
I. O‘ZBEK TILINING JAHON TILLARI TIZIMIDAGI O‘RNI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI		
Xolmanova Z.	O‘zbek tilining jahon tillari tizimidagi mavqeyini belgilashda lingvodidaktikaning o‘rni	**9**
Abdushukurov B.	Alisher Navoiy asarlaridagi qadimgi turkiy fe’llar semantikasi	**16**
Xudoyberdiyev J.	Mahmud Koshg‘ariy – singarmonizmning birinchi nazariyotchisi va ovrupolik olimlarning singarmonizm haqidagi xato qarashlari	**30**
Abdurahmanova M.	Alisher Navoiy merosi psixolingvistik talqinda	**45**
Xolmurodova M.	“Nasoyim ul-muhabbat” asaridagi tabobatga doir ayrim arabcha so‘zlar	**51**
O‘razova I.	Ot frazemalarning grammatik funksiyasi (Alisher Navoiy “Xamsa”sidagi frazemalar misolida)	**56**
Maxkamova D.	O‘zbek tili axborot-kommunikatsiya texnologiyalari	**60**

	terminologiyasi taraqqiyoti va tadqiqi	
Oripova M.	Sinestezik metaforalarda sezgilar interperatsiyasi	**66**
Muratova N.	Tilak va tabrik nutqiy aktlarida kommunikativ taktikaning tanlanish xususiyatlari	**72**
Abdullayeva G.	Folklor diskursida o‘xshatishlarning semantik-struktur va kognitiv tahlili	**78**
Xayrullayeva R.	Kichraytirish-erkalash shakllarining pragmatik ifodalanishi	**86**
Jumaniyozova Ch.	Sifat so‘z turkumida obyektiv va subyektiv belgilarning ifodalanishi	**90**
Abduvaliyeva K.	“Shajarayi turk” asaridagi ba’zi urug‘ nomlarining etnotoponim sifatidagi tahlili	**95**
Mullaboyeva Sh.	O‘zbek tilida o‘xshatishlar asosida estetik bahoning ifodalanishi	**107**
Mamadoliyeva M.	Graduallik kategoriyasining lingvistik tabiati va uning turdosh hodisalar bilan munosabati (Xayriddin Sultonov va Iqbol Mirzo asarlari misolida)	**115**
Mamarasulova M.	O‘zbek tili fonosemantik tahlilining fonologik asoslari	**130**
Siddiqova N.	O‘zbek xalq maqollaridagi eskirgan leksika: tarkibi,	**132**

	variantlanishi va lingvopoetik vazifalari	
Yusupova A.	Konseptlarning metaforik ifodalanishi va tahlil shakllari	**144**
O‘ralova N.	O‘zbek tilshunosligida parsellyatsiya hodisasi, uning sintaktik tavsifi va ega-kesim munosabatidagi o‘rni	**150**
Maxmudova M.	Kelishik kategoriyasining o‘rganilish tarixiga doir ayrim mulohazalar	**158**
Nurmatova S.	O‘zbek tilida rang ifodalovchi birliklarning lingvokognitiv strukturasi va konseptualizatsiya masalalari	**168**
Keldiyorova Z.	O‘zbek tilidagi shikoyat matnlarida nutqiy aktlarning ifodalanishi	**174**
Aliqulova Z.	Toponimlarning axborotni saqlash va uzatish xususiyatlari	**178**
Jurayeva Sh.	Hurmat kategoriyasining lisoniy birliklar bilan ifodalanishi	**183**
Karimova U.	Kultegin bitiktoshidagi xarakter-xususiyat bildiruvchi sifatlar tahlili	**188**
II. O‘ZBEK TILINI XALQARO MAYDONDA TARG‘IB QILISH STRATEGIYALARI		
Shamsiyeva M.	Peyzaj matnlari orqali turizmni rivojlantirish istiqbollari	**194**

Jo‘rayeva M.	Matnni tushunishda asar sarlavhasining ahamiyati	**201**
III. GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY TIL VA MADANIYATNI SAQLASH MASALALARI		
Ashirboyev S.	Adstrat sharoitidagi turkiy shevalarning o‘zaro ta’siri masalasi	**205**
Farhad Rahimi	Yakşı/ ĥoş, yap/ lap, ķop/ köp/ ĥob, appaķ/ pāk kelimeleri üzerine On the words yakşı/ ĥoş, yap/ lap, ķop/ köp/ ĥob, appaķ/ pāk	**210**
Xakimova M.	O‘zbek tilidagi metaforik konseptuallashtirishning milliy xususiyatlari	**232**
Abbozov O.	So‘x toponimlarining lingvomadaniy xususiyatlari	**238**
Komilova G.	O‘zbek tilida qadriyatlar tipologiyasining lingvistik verbalizatsiyasi	**245**
Xomidova M.	Zamonaviy o‘zbek badiiy matnlarida ertak elementlarining intertekstual xususiyatlari	**253**
Həsənzadə Səmra	Qrammatik metaforun türk dillərində reallaşması (özbək dilinin materiallari əsasinda)	**261**
Davronova Z.	Antroponimik freymlarda registrdan og‘ish fenomini (Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romani misolida)	**272**

Tursinbayeva Sh.	Badiiy matnda onomastik birliklarning lingvomadaniy imkoniyatlari	**276**
Bekmuradova I.	O‘zbek tilidagi ijobiy fe’l-atvor leksemalarining semantik tasnifi	**283**
Imomova I.	Fitratning dramatik asarlarida maqollarning qo‘llanilishi va funksional-semantik xususiyatlari	**291**
Turgunboeva D.	Globallashuv sharoitida o‘zbek va ingliz lingvomadaniyatida miqdoriy me’yor	**297**
Amrullayeva M.	O‘zbek tilida inson xarakterini ifodalovchi frazemalarning semantik mikromaydonlari	**305**
Abdug‘afurova A.	Lingvomadaniy kodlarning poetik faollashuvi: Faxriyor va Ulug‘bek Hamdam she’riyati qiyosida	**312**
Muzaffarova Z.	Badiiy matnda qo‘llangan metaftonimik birliklarning kognitiv xususiyatlari	**322**
Jumayeva M.	Son komponentli lug‘aviy birliklarning lingvokulturologik tahlili	**327**
Xolmo‘minova H.	Frazemalarning lingvomadaniy tahlili	**333**
IV. O‘ZBEK TILINI O‘QITISHNING ZAMONAVIY METODLARI VA XORIJIY TAJRIBA		

Xusanova N.	Raqamli ta’lim muhitida o‘qish savodxonligi transformatsiyasi vositasida boshlang‘ich o‘quvchilarning kreativligini shakllantirish	**337**
Mamirova X.	Bolalarda ko‘p ma’noli so‘zlarni o‘zlashtirishning psixolingvistik mexanizmlari va til ta’limiga ta’siri	**344**
Arolova N.	Maktabgacha yoshdagi o‘zbek bolalari nutqida sintaktik tejamkorlik	**351**
Mirnosirova D.	Nutqiy ijod haqidagi nazariy qarashlar talqini	**356**
Nurboboyeva R.	Erta yoshdagi bolalar ta’limida adabiyotning tutgan o‘rni	**363**
Keldiboyeva M.	O‘zbek tili omonimlarini o‘zlashtirishda kontekst va assotsiatsiyaning psixolingvistik roli	**369**
V. TARJIMA VA LINGVOMADANIY ALOQALAR: XALQARO HAMKORLIKNING MUHIM OMILI SIFATIDA		
Mustafa Said Arslan	Türkiye türkçesi ve özbek türkçesi arasindaki yakinliğin öğretimdeki yansimalari: özbek türkçesi öğretiminde karşilaşilan sorunlar ve öneriler	**378**
Kalanova D.	O‘.Hoshimov “Dunyoning ishlari” asarining koreyscha tarjimasida milliy-madaniy realiyalarning berilishi	**389**

Muhammadiyeva D.	Ko‘p tilli parallel korpusning tarjima birliklarini qiyosiy o‘rganishdagi imkoniyatlari	**400**
Abbasova Ş.	Özbek Yazı Dili ve Azerbaycan Türkçesi'nin Ağızlarında Akrabalık Terimleri	**411**
Qarshiyev K.	Badiiy tarjimaning adabiy-estetik tafakkur evolyutsiyasiga ta’siri (Jamol Kamolning tarjimonlik faoliyati misolida)	**418**
Rahimova Z.	Parallel korpuslarning tarjimashunoslik va qiyosiy tilshunoslikdagi ilmiy ahamiyati	**428**
Bozorova S.	Rus tilidagi ayrim gippologik birliklar tadqiqiga doir	**433**
Axmedova N.	O‘zbek va ingliz tillarida ruhiy holat birliklarining semantik farqlari va kontekstual tarjimasi	**442**
Davlatova R.	Sun’iy intellekt asrida inson nutqi, tilni idrok etish va psixolingvistik jarayonlar	**448**
Turdiyeva R.	Ingliz, qoraqalpoq va o‘zbek tillaridagi maqollarda zoonimlarning lingvokognitiv tahlili (“bo‘ri” misolida)	**462**
Ataniyazova S.	O‘zbek va ingliz tillarida mayl, zamon va modallikning muloqot xulqidagi funksional-uslubiy imkoniyatlari	**466**
Sayfiyeva K.	O‘zbek va ingliz fitonim komponentli maqollarida inson	**472**

	konseptining kognitiv metaforik modellari	
Tillayeva O.	O‘zbek va turk maqollarida erkak konseptining semantik maydoni	**485**
Musurmankova Sh., **Abdullayeva D.**	“Ikki eshik orasi” romanidagi murojaat birliklarining lingvomadaniy xususiyatlari va tarjima muammolari	**495**
Abdullayeva M.	Ingliz va o‘zbek maqollarida nutqiy antonimiyaning lingvokognitiv xususiyatlari	**502**
VI. AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA RAQAMLI MUHITDA O‘ZBEK TILINING RIVOJI		
Abjalova M.	O‘zbek tili multikorpusida aksentologik korpus va uning ahamiyati	**513**
Elova D.	O‘zbek normativ-huquqiy matnlarini lingvo-mantiqiy annotatsiyalash mezonlari	**524**
Kasimova Z.	O‘zbek tili iboralar korpusini yaratishning lingvistik va kompyuter asoslari	**534**
Nurullayeva O.	Barqaror birikmalar resurslari va parallel korpus uchun baza tuzish mezonlari	**542**
Musulmonova K.	Lingvistik ekspertologiyada matn identifikatsiyasi bo’yicha ekspert xulosalarini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari	**550**

Umarova Sh.	Kollokatsiyalarni korpus asosida aniqlashning nazariy va metodologik asoslari	**556**
Akramdjanova M.	Parallel korpusning madaniyatlararo kommunikatsiyadagi o‘rni	**564**
Buronova R.	Raqamli muhitda o‘zbek tilidagi neologizmlarning shakllanishi	**570**
Shodmonaliyeva Y.	Sentiment tahlilda tasdiq-inkor emojlarining diskursiv va pragmatik funksiyalari	**576**
Rayimjonova M.	Rauf Parfi she’riyatining leksik-statistik xususiyatlari	**591**
VII. XALQARO TA’LIM DASTURLARI VA O‘ZBEK TILI: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLAR		
Mirzəli Məleykə	Azərbaycanda özbək dilinin tədrisi: təcrübə və perspektivlər (bakı slavyan universitetinin timsalında)	**595**
Iskandarova G.	O‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘rganishda so‘z ma’nolarini o‘zlashtirish	**603**
VIII. O‘ZBEK TILI VA DIPLOMATIYA: XALQARO MUNOSABATLARDA TILNING O‘RNI		
Темирова Б., **Темирова М.**	Кыргыз, өзбек тилдери жана алардын адабий-маданий байланыштардагы ролу	**610**

Nazarov Q.	O‘zbek diplomatik diskursida metaforalarning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari	**620**
IX. ILMIY TADQIQOTLAR VA LINGVISTIKADA XALQARO HAMKORLIK MASALALARI		
Berdak Yusuf	O‘zbek tilining shakllanish jarayoni va eski o‘zbek tili terminlari	**626**
Qurbonova M.	Xarizmatik nutq haqidagi nazariy qarashlar talqini	**632**
Umurzoqova M.	Erkin A’zam asarlarida lisoniy shaxs tiplari	**640**
Mirzaali Malika	O‘zbek tılının mavsumıy marosımlar leksıkasıda turkıy areal mavqeyı	**646**
Məmmədova A.	Xarəzm Türkcəsində Və Müasir Özbək Dilində Qohumluq Terminlərində Cins Kateqoriyasinin İfadəsi	**661**
Tuxtasinova M.	L.Z.Budagov lug‘atidagi umumturkiy leksik fond: “tur.” pometali leksemalarning tarixiy-qiyosiy tahlili	**670**
Abdullayeva S.	So‘z yasalishını qıyosıy-tıpologık tadqıq etısh metodologıyası va tahlıl mezonları	**681**
Xasanova G.	Kinesikaning lingvistik tadqiqi: shakllanish tarixi va kommunikativ funksiyalari	**688**

Rajabov N.	O‘zbek tilida ng fonemasining talaffuzi, imlosi va tarixiy taraqqiyoti	**695**
Mirzayeva G.	O‘zbek tilida tovush o‘zgarishlarining neyrolingvistik asoslari	**699**
Arislanova M.	She’riy matnning konseptual tizimi va lingvokognitiv xususiyatlari (Erkin Vohidov ijodi misolida)	**706**
Muhammadiyeva M.	“Shum Bola” qissasidagi ba’zi polisemantik leksemalar tahlili	**717**
Abdullayev G‘.	Fitrat she’riyatidagi turkiy so‘zlarning emotsional-ekspressiv xususiyatlari	**722**
Tursunova S.	Ironiyada implikatura fenomeni va yashirin ma’no mexanizmlari	**726**
Turobova N.	Badiiy diskursda morfologik vositalarning pragmatik xususiyatlari	**737**
Utegenova O‘.	O‘zbek tilida tasviriy ifodalarning badiiy matnda qo‘llanilishi	**744**
Komilova G.	Tarixiy-badiiy matnlar korpuslarini yaratish zarurati va ularni semantik modellashtirish masalalari	**749**
Haydaraliyeva Sh., Mo‘minova M.	O‘zbek tili leksikasining taraqqiyot tamoyillari va semema tushunchasi	**759**

Axmedova M.	Diskurs tushunchasining lingvistik talqini: nazariy yondashuv va ilmiy qarashlar	**768**
Komilova Sh.	Lingvokultrologiyada evfemizm va milliy mentalitet: ayollar nutqi misolida nazariy talqinlar	**774**
Suyunova D.	“Boburnoma” dagi leksik qatlamlarning “Boburiynoma”da badiiy qayta faollashuvi: leksik-semantik va funksional-uslubiy tahlil	**780**
Maqsudaliyeva Y.	Lingvistik ekspertiza va lingvokriminalistik tahlil: nazariya va amaliyot	**786**
Abdurasulova D.	O‘zbek qizlari nutqidagi neonim va slenglarning pragmalingvistik tadqiqi	**792**
Majidova M.	Tibbiy soha rahbarlari kinesik nutqining lingvosomatik tadqiqi	**797**
Abdullayeva I.	Gender qadriyatlarning aksiolingvistik tahlili	**802**
X. O‘ZBEK TILINING OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI VA MEDIA MAKONIDAGI O‘RNI		
Saydaliyeva M.	Kinodiskurs multimediali muloqot tizimi sifatida	**809**
Otaxonova S.	Mediamatnlarda antroponimlarning pragmatik imkoniyatlari	**813**